

Bobning nomi: The Language of Child Sexual Abuse and Exploitation

Muallif: Mary Graw Leary

Kitob nomi: Refining Child Pornography Law

Kitob sarlavhaosti: Crime, Language, and Social Consequences

Muharrir: Carissa Byrne Hessick

Nashriyot: University of Michigan Press (2016)

Doimiy havola: <https://www.jstor.org/stable/j.ctt1gk08jr.8>

Mazkur maqola professor Mary Graw Leary ruxsati bilan oʻzbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu ruxsat uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima Oʻzbekistonda gender zoʻravonlikka qarshi kurashga qaratilgan mustaqil media-loyiha **Nemolchi.uz** tashabbusi doirasida amalga oshirildi. Ushbu loyiha jamiyatda strukturaviy zoʻravonlik, ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari haqidagi bilimlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan, oʻzbek tilida ham yetkazishni maqsad qilgan.

Tarjimon: Kamola Shorustamova

Tarjima sanasi: 2025-yil

Tarjima Shveytsariyaning Oʻzbekistondagi Elchixonasi koʻmagida tayyorlangan.

Tarjimadan foydalanish shartlari:

Mazkur tarjimani erkin oʻqish, taʼlimiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin, biroq bunda asl manba va asl nashrga havola koʻrsatilishi shart. Tarjimonning ismi va **Nemolchi.uz** loyihasi koʻrsatilishi ham maqsadga muvofiqdir.

<https://www.jstor.org/stable/j.ctt1gk08jr.8>

4 | **Bola jinsiy zo'rvonligi va ekspluatatsiyasi tili**

Mary Graw Leary

Tilning ahamiyati katta. So'z tanlovi muhim. Yorliqlar qanchalik pedantik bo'lmasin, muhimdir. Ular nafaqat ma'no, balki ohang va mazmunni ham ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Bu ayniqsa huquq sohasida muhim bo'lib, ta'riflar jinoyat bilan qonuniy harakat o'rtasidagi farqni belgilashi mumkin, hakamlar hay'atiga beriladigan ko'rsatmalarining ta'rifi esa oqibatda oqlash yoki mahkum qilish o'rtasidagi farq bo'lishi mumkin. Aniqlik zarurati bolalarni ekspluatatsiya qilish kabi qonun bilan bog'liq bo'lgan, ammo faqat qonun bilan cheklanmagan subyektlar uchun yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mavzularning ahamiyati qonundan tashqari, tibbiyot, ijtimoiy ish va voyaga yetmaganlarni rivojlantirish kabi sohalarga ham tarqaladi.

Bolalar zo'rvonligi va ekspluatatsiyasi masalasida aniq til ishlatilishi bolalarga yetkazilayotgan zararlarning naqadar og'irligini va jamiyatning bunday jinoyatlarga qanchalik jiddiy yondashishini ifodalashga yordam beradi. Biroq afsuski, bu zararlar haqidagi zamonaviy munozaralarning aksariyatida bunday aniqlik mavjud emas. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik va ekspluatatsiya bilan bog'liq atamalar ko'pincha birinchi bo'lib ommaviy axborot vositalari tomonidan shakllantiriladi. Media esa tomoshabinni yoki o'quvchini jalb qilish uchun aniq terminlardan ko'ra sensatsion, shov-shuvli tilni afzal ko'radi. Bundan tashqari, ushbu atamalarni qurbonlarning haqiqiy holatini to'g'ri nomlashni maqsad qilmagan turli manfaat guruhlari ham shakllantirishi mumkin. Keyinchalik bu tildagi noaniqlik nafaqat milliy siyosiy muloqotlarga, balki jinoyatlar, qonunlar va huquqiy sanksiyalar haqidagi muhokamalarga ham o'tadi. Bu esa chalkashliklar, kutilmagan huquqiy va ijtimoiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu bob bolalar ekspluatatsiyasi tilini o'rganadi va atamalarning noaniqligi turli sohalar kesimida qanday oqibatlarga olib kelishini tahlil qiladi. Boshqa olimlarning ishlariga tayanib, ushbu bob bolalar zo'rvonligi va ekspluatatsiyasi bo'yicha sohalararo maydonda "adolatli yorliqlash" tamoyilini qabul qilish va kengaytirishga chaqiradi. Ushbu bob ikki yo'nalishda yondashishni targ'ib qiladi: birinchidan, "adolatli yorliqlash" tamoyilini bolalar zo'rvonligi va ekspluatatsiyasiga tatbiq etish; ikkinchidan, bu tamoyilni faqat qonundagi huquqiy atamalar bilan chegaralab qo'ymasdan, balki bolalar jinsiy zo'rvonligi va ekspluatatsiyasi haqidagi ko'p sohalararo muhokamalarda ham yoyish. Umuman olganda, bu ko'p sohalararni qamrab oluvchi ushbu yo'nalishda ishlatiladigan atamalarga nisbatan aniqlikni oshirish maqsadida yanada mulohazali yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, "bolalar jinsiy ekspluatatsiyasi uchun odam savdosi qurbonlari", "bolalarning jinsiy zo'rvonlik aks etgan tasvirlari", "bolalar tomonidan yaratilgan jinsiy zo'rvonlik aks etgan tasvirlar" hamda "birinchi va

uchinchi tomon odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar" kabi atamalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Adolatli yorliqlash tamoyilini qabul qilish va uni bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiya bilan bog'liq atamalarga qonun doirasidan tashqarida qo'llash ham muloqotni yaxshilash, ham samaraliroq javob choralari ishlab chiqishda muhim qadamlardan biridir. Bu yondashuv shunchaki semantika emas. Jamiyat bu masalalar bilan kurashmoqda va atamalar noaniq ishlatilganda yoki bir xil bo'lmagan ma'nolarda qo'llanganda bu kurash yanada murakkablashadi. Muammolarning noaniq ta'riflari oqibatda mavjud emas, balki tasavvur qilingan qurbonliklarga qarshi choralarni ishlab chiqishga olib keladi. Aniqroq ta'riflar esa aniqroq choralar ko'rilishiga olib keladi, natijada oldini olish bo'yicha xabarlar yanada to'g'riroq yetkaziladi hamda oldini olish choralari samara bermagan hollarda jamiyatning munosabati ham yanada mos bo'ladi.

I. Aniq tilning ahamiyati

Voqea-hodisalarni aniq va ravshan tarzda ifodalaydigan tilga ehtiyoj faqatgina bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiya masalalariga xos emas. Aniqlikka bo'lgan zarurat ko'plab sohalarda mavjud. Ba'zan bu talab amaliy sabablarga asoslanadi, ba'zan esa ko'proq kontseptual tusga ega bo'ladi. Quyidagi misollar turli sohalarda aniq tilning ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Masalan, tibbiyotda aniq til amaliy jihatdan nihoyatda muhimdir. Tashxisdagi noaniqlik noto'g'ri davolanishga va halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tibbiyot mutaxassisleri kasallik yoki jarohat nomini aytishda bo'ladimi, yoki davolashga muhtoj bo'lgan tananing aniq joyini ko'rsatishda bo'ladimi – har qanday murakkab yoki sodda masalada mutlaq aniqlik bilan gapirishlari shart. Tibbiyotda aniqlikning yanada nozik sababi ham bor: bu — bemorlarning xabardor bo'lishi zarurati. Shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot aniq bo'lishi kerak, chunki bemor hayotini o'zgartiruvchi qarorlarni aynan shu ma'lumotlarga asoslanib qabul qiladi. Shifokorlar so'zlarini shunday tanlashlari kerakki, ular ortiqcha qo'rquv va vahima uyg'otmasin, biroq jiddiylik va xavfni ham to'g'ri ifodalasin. Tibbiy favqulodda vaziyatga muvaffaqiyatli javob berish barcha tomonlarning kasallik haqida aniq va umumiy tushunchaga ega bo'lishidan boshlanadi.

Shunga o'xshash aniq gapirish va so'zlarni o'ta ehtiyotkorlik bilan tanlash talabi siyosat va davlat boshqaruvida ham mavjud. Buning sabablari nafaqat amaliy, balki qadriyatlarga bog'liq hamdir. Masalan, 2013-yilda Misr armiyasi mashhurligi pasaygan, ammo saylangan prezidentni hokimiyatdan ag'darib tashlaganida, AQSh hukumati ijroiya bo'linmasi bu voqeani "davlat to'ntarishi" deb atashdan tashqari barcha usullarda qoraladi. Bunday atamadan qochishning sababi aniq edi. Agar AQSh bu voqeani harbiy davlat to'ntarishi deb baholaganida, 2012-yilgi Konsolidatsiyalangan byudjet to'g'risidagi qonunning 7008-bo'limi ishga tushgan bo'lar edi. Bu esa AQShning muhim ittifoqchisi bo'lgan Misrga

berilayotgan yordamni cheklab qo'yar edi¹. Shu bois tashqi ko'rinishidan qat'i nazar, ijroiya hokimiyati bunday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan yorliqni ishlatmaslikka harakat qildi. Biroq qonun chiqaruvchi hokimiyat doirasida va hukumatdan tashqaridagi ko'plab kuzatuvchilar Misr armiyasi haqiqatda davlat to'ntarishi sodir etganini, shu bois bu hodisaga shunday nom berilishi kerakligini ta'kidladilar. Ularning fikricha, voqeaga noto'g'ri yorliq qo'yish emas, balki uni to'g'ri nomlash lozim edi, hukumatning reaksiyasi esa — sanksiyalarni qo'llashmi yoki sanksiyalar tizimini o'zgartirishmi — haqiqatga asoslangan bo'lishi kerak edi, noto'g'ri tasvirga emas.

Aniq va to'g'ri yorliqlar ijtimoiy me'yorlarni ifodalashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Buni "etnik tozalash" yoki "genotsid" kabi iboralar atrofidagi munozaralar yaqqol ko'rsatadi. Genotsid — kuchli va hissiy jihatdan ta'sirli atama bo'lib, eng yovuz va tizimli jinoyatlarni eslatadi. Bu atama, shuningdek, xalqaro huquq doirasida aniq tarkibiy qismlar va oqibatlarni ham o'z ichiga oladi. Genotsid jinoyatini oldini olish va jazolash to'g'risidagi Konvensiyada genotsid ta'rifi aniq belgilanadi: unda ham ruhiy element (milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni butunlay yoki qisman yo'q qilish niyati), ham jismoniy element (o'ldirish, jiddiy tanaviy yoki ruhiy zarar yetkazish, halokatli hayot sharoitlarini yaratish, tug'ilishning oldini olish yoki bolalarni majburan boshqa guruhlariga o'tkazish) mavjud². Shunday qilib, bu atama jinoyatning og'irligini ham, jinoyatchining niyatini ham ifodalaydi³. Agar genotsid sodir bo'lsa, Konvensiya ishtirokchilari nazariy jihatdan uni oldini olish va jazolashga majbur bo'ladilar.⁴ Bundan tashqari, ayrim qotilliklarni "genotsid" deb atash xalqaro hamjamiyatga bu harakatlarning dahshatli va kechirilmasligini aniq ko'rsatadi, shuningdek, jinoyatchilar ma'lum bir guruhni yo'q qilish niyatida harakat qilganini bildiradi. Biroq genotsid ta'rifiga faqat to'rtta toifa — milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhlar kiradi. Shu sababli, "genotsid" atamasi qaysi guruhlar alohida himoya qilishga loyiq degan qadriyatli xulosani ham bildiradi.⁵ Ta'rifning bunday torligi va uning yashirin xulosalari ayrim olimlarni genotsid so'zining doirasini kengaytirib, boshqa guruhlarni ham (masalan, siyosiy yoki gender asosidagi guruhlar) shu ta'rifga kiritishga undadi. Ular bu yo'lda ham amaliy, ham normativ dalillar keltiradilar. Ta'rifni kengaytirish bunday jinoyatlarga xalqaro javob choralarni ko'paytiradi va ularni universallik darajasida qoralashni ta'minlaydi. Normativ nuqtai nazardan esa ular boshqa atamalar jinoyatning og'irligini, jinoyatchilarning aniq bir guruhga qarshi yo'naltirilgan niyatini yoki qurbonlarning huquqiy maqomini to'liq ifodalashga qodir emasligini ta'kidlaydilar. Boshqalar esa bunday kengaytirishga qarshi chiqadi, chunki genotsid va boshqa xalqaro jinoyatlar o'rtasidagi farqni yo'qotish chalkashlik keltirib chiqaradi hamda har bir mojaro uchun barqaror bo'lmagan darajada xalqaro javobni ishga solib yuborish xavfini tug'diradi. Natijada, vahshiylik sodir

bo'lganda xalqaro hamjamiyat uni "etnik tozalash", "genotsid" yoki "insoniyatga qarshi boshqa jinoyat" sifatida ta'riflash borasida hamisha bir to'xtamga kelolmaydi.⁶

Xuddi shunday ta'riflashdagi bahslar va noaniqlik xavfi ichki siyosatda ham mavjud. Masalan, "nafrat jinoyati" yorlig'i atrofida ham katta munozaralar mavjud. Bu atama ayrim jinoyatlarni xusumat (kamsitish) motivi bilan sodir etilgan sifatida ajratib ko'rsatish uchun qo'llanadi. Ammo qachon "nafrat jinoyati" yorlig'ini ishlatish to'g'ri bo'lishi borasida kelishmovchilik bor. Ba'zilarga ko'ra, bu atama faqat jinoyatchi qurbonni uning irqiy mansubligi yoki boshqa taqiqlangan belgisi asosida tanlagan hollarda qo'llanilishi kerak. Boshqalar esa bu atamani jinoyatchining *motivini* ajratish uchun emas, balki qurbon ko'rgan zararlarni ifodalash uchun ishlatish kerak, deb hisoblaydi.⁷ Shu sababli, ba'zi mutaxassislar bu so'z ma'nosi va ahamiyatini susaytirmaslik uchun uni kamroq qo'llash tarafdori. Boshqalar esa nafrat jinoyati toifasini kengaytirib, jabrlanuvchilarning kengroq guruhlarini, masalan, zo'rlash qurboni bo'lgan ayollarni ham unga kiritishni taklif qiladilar. Ularning fikricha, "nafrat jinoyati" atamasi o'ziga xos stigma olib yuradi va kamsitish motividan kelib chiqqan barcha jinoyatlarga bu yorliqni qo'llamaslik jinoyatning qurbonlarga yetkazgan zararni kamaytirib ko'rsatadi.⁸

A. Yorliqlar anglash imkonini beradi

Umuman olganda, jamiyat qurbonlikka qanday ifodalashi, talqin qilishi ushbu xatti-harakatga nisbatan jamiyatda hukmron bo'lgan qarashlar haqida muhim tasavvur beradi. Jamiyat biror xatti-harakatni (jinoyat bo'ladimi yoki yo'q) qanday atashi uning normalashtirilganmi, ulug'langanmi yoki qoralangani haqida ishora beradi. Masalan, bolaning intizomi uchun jismoniy kuch ishlatishni "jismoniy jazo" deb atash ota-ona yoki vasiy tomonidan bolaning xatti-harakatini jazolash huquqi doirasidagi ish sifatida talqin qilinishini bildiradi. Chunki ko'pchilik bola tarbiyasida jazo zaruriy komponent ekaniga rozi, ushbu ta'rif hech qanday yomon niyatni ifoda etmaydi. Xuddi shu amalni "bola zo'raonligi" deb atash esa kuch ishlatishning butunlay boshqa, nojoiz shaklda tushunilishini uyg'otadi.

Biror amalni qanchalik joiz yoki joiz emasligini ifoda etishdan tashqari, til ijtimoiy tashvish va qadriyatlarning o'zgarishini ham ko'rsatib beradi. Masalan, bir avlod oldin bolaga yoki keksaga nisbatan jismoniy zo'raonlik holatlari oddiy "hujum" deb atalar edi — ya'ni har qanday shaxsga qarshi noqonuniy kuch ishlatishga qo'llanadigan atamadan farqsiz. Bugungi kunda esa bir qancha shtatlarda "bola zo'raonligi" yoki "keksa zo'raonligi" kabi maxsus jinoyatlar belgilangan.⁹ Bu yangi qonunchilik tili jamiyatda ushbu zararlarning o'ziga xosligini anglashni hamda ijtimoiy idrokda bu o'zgarishdan kelib chiqqan

huquqiy burilishni bildiradi. Aksincha, ba’zan qonunning o‘zi milliy narrativga yetakchilik qiladi. Masalan, “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik to‘g‘risidagi qonun” nafaqat huquqiy normalarni o‘zgartirdi, balki turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlik va ayollar faqat ayol bo‘lgani uchun ularga nisbatan sodir etiladigan boshqa zarar turlariga bo‘lgan umumiy tushunchani ham o‘zgartirdi. Ushbu qonun bunday munosabatlarni faqat va faqat zo‘ravonlik sifatida belgilab berdi: bu na sevgi, na nazoratdan chiqib ketgan munosabat, na vaqtinchalik aqlni yo‘qotish emas, balki sof zo‘ravonlik. Natijada, oilaviy zo‘ravonlik soyadan chiqdi: ko‘proq qurbonlar jinoyat haqida xabar bermoqda, ko‘proq politsiya chora ko‘rmoqda va ko‘proq qurbonlar xizmatlardan foydalanib yordam olmoqda.¹⁰

B. Huquqiy tushuncha

Jamiyat qurbonlikni qanday atashi, o‘sha qurbonlik haqidagi ommaviy tasavvurni shakllantirishi mumkinligi sababli, jinoyat va uning keltirgan zararlari haqida so‘z yuritishda so‘zlarni ehtiyotkorlik bilan tanlash kerak. Faqat biror faoliyatni “noqonuniy” deb belgilashning o‘zi kifoya emas. Jinoyatlar kengroq ijtimoiy normalar va siyosiy haqiqatlar doirasida tushunilishi lozim. Ular shuningdek, ushbu faoliyatlarning naqadar jiddiy ekanini ifoda etadigan tarzda tasvirlanishi kerak. Har bir kishi jinoyatning og‘irligini va u keltirgan aniq zararni tushunishi nafaqat semantik masala. Bunday yorliqlar jamiyatning jinoyatlarning oldini olishga yoki ularga javob berishga qaratilgan sa’y-harakatlariga ham ta’sir qiladi. Qurbonlikning to‘liq anglanishi jamiyatning zararli xatti-harakatlarga nisbatan mazmunli yondashuvini shakllantiradi.¹¹ Masalan, “oilaviy janjal”ni turmush o‘rtoq zo‘ravonligi sifatida tushunish ilgari noto‘g‘ri baholangan qurbonlikka to‘g‘ri javob berish uchun muhim qadamdir.

Biror atama yoki ta’rif yetarlicha tasviriy bo‘lishini baholash — ya’ni nafaqat to‘g‘ri bo‘lishi, balki jinoyatning jiddiyligini va keltirgan zararini to‘liq aks ettirishi — atamalarning odatiy tildagi ishlatilishiga ham bog‘liq. Agar biror atama kundalik muloqotda “yumshatib aytish” (evfemizm) ma’nosiga aylangan bo‘lsa, uni jinoyat va qurbonlik haqidagi ommaviy nutqda ishlatish zararni kamaytirishi, uni normalashtirishi yoki hatto ulug‘lashi mumkin.¹² Masalan, “qo‘shmach” atamasi dastlab fohishalarni manipulyatsiya, tahdid yoki qo‘rqitish orqali nazorat qilib, ularni jinsiy xizmat ko‘rsatishga majburlaydigan va bu daromaddan foyda ko‘radigan shaxsni anglatgan.¹³ Lekin ommaviy madaniyatning ayrim qatlamlari bu atamani jinoyat emas, balki maqtoqli turmush tarzi sifatida ko‘rsatib oldi.¹⁴ Shu tariqa, bu atamaning oddiy muloqotda ishlatilishi aslida qurbonlarni zo‘rlilik bilan boshqarib, majburan jinsiy savdoga majbur qilgan shaxsning qilgan zo‘ravonligi va zararni kamaytiradi.

Zararni kamaytiruvchi yorliqlar ko‘pincha ommaviy axborot vositalarida mashhur jinoyat ishlarini yoritishda uchraydi. Masalan, Roman Polanski ishi: u 47 yoshida o‘n uch yoshli qizni dorilab, zo‘rlaganini tan olgan bo‘lsa-da, bu ish keyinchalik “jinsiy/sex janjal” deb ataldi, “jinsiy tajovuz” emas.¹⁵ Xuddi shuningdek, Jerri Sanduski bir necha yil davomida o‘nlab o‘g‘il bolalarni zo‘rlaganlikda ayblanganda, OAV bu ishni “Sanduski mojarosi” deb qayta nomladi.¹⁶ OAV bola zo‘ravonligi yoki jinsiy tajovuz ishini “jinsiy janjal” deb emas, balki “jinsiy tajovuz” sifatida atamaganida, bu yorliqlar qurbonning boshidan kechirgan jinsiy zo‘ravonligini, uning huquq, sha‘ni va qadr-qimmatini to‘g‘ri ifoda etmaydi.¹⁷

Shunday qilib, yorliqlarning asosiy vazifasi — ifoda. Yorliq jinoyatchining aybdor xatti-harakatini ham, keng jamoatchilikni ham qamrab oladi: jinoyatchini qoralaydi va uning xatosini jamoaga yetkazadi. Bu jamiyatning muhim normalar va qadriyatlarining buzilishiga bo‘lgan nafratini ifoda etadi.¹⁸ Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlikni ifodalovchi atamalar ushbu qurbonliklarning mohiyatini aks ettirishi kerak, va aniqlik bilan ishlatiladigan yorliqlar jinoyatning jiddiyligini va jinoyatchining qoralanganini to‘liq ifoda etishda juda muhimdir.

II. Jinoyat qurbonligi diskursida yorliqlar

A. Jinoyat qurbonligini yoritishda yetarlicha tavsiflovchi tilning alohida zaruriyati

Aniq til va ta‘riflar ko‘plab sohalarida muhim bo‘lsa-da, ular ayniqsa jinoyat qurbonligini tasvirlashda juda muhimdir. Bu nafaqat jinoyatlarning o‘ziga beriladigan yorliqlar uchun, balki jinoyat qurbonligi atrofida qo‘shimcha atamalar uchun ham to‘g‘ri. Jinoyatlar har doim muhokama uyg‘otadi. Zamonaviy jinoyat huquqi tibbiyot, ijtimoiy ish va ruhiy salomatlik kabi ko‘plab boshqa sohalarini ham qamrab oladi. Ushbu barcha qo‘shimcha munozaralar, shuningdek huquqning o‘zidan kelib chiqqan muhokamalar ham aniqlikni talab qiladi.

Samarali jinoyat adliya tizimi nafaqat adolatni ta‘minlashi, balki jamiyat uni adolatli tizim deb qabul qilishi ham zarur. Til bu borada muhim rol o‘ynaydi. Chunki, Genri Xart ta‘kidlaganidek, jinoyat hukmi jamiyatning “tantanali qoralash” bayonoti hisoblanadi, jinoyat atrofida til yanada muhim ahamiyat kasb etadi.¹⁹ Har bir jinoyatga beriladigan yorliq mazmunni ifoda etishi mumkin: “Turli jinoyatlarga bog‘langan noyob yorliqlar o‘sha xatti-harakatlarga jamiyat tomonidan beriladigan qoralash darajalarini aks ettiradi.”²⁰ Shu sababli, jinoyatlar

noto'g'ri tasvirlansa yoki noto'g'ri yorliqlansa, bu jamiyatning o'sha xatti-harakatga munosabatini aks ettirishi yoki shakllantirishi mumkin.²¹

Shunday qilib, jinoyat xatti-harakatini ifodalovchi til yetarlicha tavsifiy bo'lishi kerak. Yetarlicha tavsifiy bo'lishi uchun umumiy jinoyat nutqida ishlatiladigan til ham, jinoyatlarni yorliqlash uchun ishlatiladigan maxsus til ham jinoyatning mohiyatini va jamiyatning unga nisbatan qanday darajada qoralashini ifoda etishi lozim. Zarar mohiyati nafaqat shikastlanishni, balki jinoyatchining ruhiy holatini ham qamrab oladi. Yetarlicha tasviriy bo'lmagan til jinoyat huquqi va jamiyat tizimlarining maqsadlariga turli usullarda xalaqit qilishi mumkin. Juda umumiy yoki yumshoq atamalar zararni kamaytirishi yoki uni normalashtirishi mumkin. O'ta keskin til esa noto'g'ri xatti-harakatlarni qoralab qo'yishi mumkin. Jinoyat qurbonligi ko'pincha juda murakkabdir. O'ta umumiy yorliqlar turli faoliyatlarni bir xil ko'rsatib, ularni ajratib ko'rib chiqishni talab qiladigan hollarda hammasini qamrab olishi mumkin. O'ta aniq yorliqlar esa huquqiy javobgarlikdan qochish uchun "bo'shliqlar"ni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois jinoyat qurbonligini ifodalovchi so'zlar juda sinchkovlik bilan tanlanishi lozim.

Amaliy jihatdan qaraganda, qonunlar, yozma huquqning o'zi — aniqlikni talab qiladi, chunki oldingi voqealar huquqiy sanksiyalarni ishga tushirishi mumkin. Masalan, jinsiy savdo uchun sotilgan bolani "zo'ravonlikning, odam savdosining og'ir shakli qurboni" deb atash uni davlat xizmatlariga yo'naltiradi.²² Xuddi shu bolani "voyaga yetmagan fohisha" deb atash esa uni voyaga yetmaganlar qamog'iga olib keladi. Demak, yorliq tanlovi kelajakdagi voqealarning qanday rivojlanishini belgilaydi.

Bu faqat maxsus jinoyatlar nomlariga emas, balki umumiy jinoyat qonunchiligiga ham taalluqlidir. Ba'zi olimlar qonunlarni ularning qabul qilinishini ta'minlash uchun haddan tashqari "shov-shuvli" qilib nomlash tendensiyasini xavotirli deb biladilar.²³ Masalan, bolalarga qarshi turli jinoyatlarni qamrab oluvchi katta qonun loyihasi 2013-yilda "Bolalarni bugun ekspluatatsiyadan himoya qilish" ma'nosini anglatuvchi PROTECT Act deb nomlangan. Bugun ham shunday nomlash davom etmoqda: masalan, Big Oil Welfare Repeal Act of 2013 (HR 1426), Reducing Barack Obama's Unsustainable Deficit Act ("Barak Obamaning Barqaror Bo'lmagan Qarzdorligini Qisqartirish To'g'risidagi Qonun")(HR 3140 2009) yoki Stop the FEDS Act (HR 118) (112th Cong) ("Davlat birjalarining shtatlarni yo'q qilishini to'xtatish to'g'risida qonun"). Bunday yorliqlar aniqlikni dramatizmga qurbon qiladi. Uelman bu keskin nomlarning jinoyat adliya tizimidagi murakkablikni "soddalashtirilgan yorliqlar ortiga yashirishini va bizning adolatga intilishimizga to'sqinlik qilishini" asosli ravishda tanqid qiladi.²⁴ Qonunlarning maqsadi ijtimoiy muammoga javob berish va uni bartaraf etishdir. Noaniq va dramatik til esa muammoni yoki unga mos javoblarni jamiyatda anglashga xizmat qilmaydi.

B. Adolatli yorliqlash tamoyili

Ba'zi jinoyat huquqi olimlari Endryu Ashvort tomonidan ilgari surilgan "adolatli yorliqlash" tamoyilini qabul qilishga chaqirishgan. Bu tamoyil jinoyat yorliqlari jinoyatchining xatti-harakatining mohiyatini va ko'lamini adolatli tarzda ifodalash zarurligiga urg'u beradi.²⁵ Dastlab ingliz jinoyat huquqi islohotlariga qaratilgan bu tamoyil jinoyatni tasvirllovchi yorliq uning noto'g'riligini ham, og'irligini ham aniq aks ettirishini talab qiladi:

*To'g'ri yorliq jinoyat xatti-harakatining mohiyati va butunligini ifodalaydi. Bu buzilgan manfaat (jismoniy yaxlitlik yoki mulk huquqi), zarar og'irligi (inson hayotini olish yoki bir kulbani yoqib yuborish), jarohat mexanizmi (o'g'rilik va firibgarlik yoki yondirish va buzg'unchilik) va jinoyatchining ruhiy holatining birlashmasidir...*²⁶

Yorliq jinoyatchining aybdorligini va uning xatti-harakati zararini tushuntirishi kerak.²⁷

Adolatli yorliqlash tamoyilini qabul qilish ijtimoiy va jinoyat adliya tizimini mustahkamlaydi. U ham tavsifiy, ham normativ xususiyatlarga ega. Tavsifiy ma'noda u jinsiy qurbonlik tilini barcha qurbon qiluvchi xatti-harakatlarni yetarlicha tasvirlashga majbur qiladi. Bu nafaqat jinoyatning qonundagi nomida, balki uning atrofidagi har qanday tegishli xatti-harakatlarni ham aniq tasvirlashni talab qiladi. Aniqlikdan tashqari, adolatli yorliqlash tilida jamiyatning qoralash darajasi ham ko'rinishi kerak. Bunday yondashuv nafaqat anglashni kuchaytiradi, balki jinoyat hodisalarining murakkabliklarini aks ettirib, jinoyat adliya tizimida maqsadli va samarali tashabbuslarga olib kelishi mumkin.

Adolatli yorliqlashning ikki asosiy jihati bor: tavsiflash va adolat. Tavsiflash komponenti kamida ikkita sub-xususiyatni o'z ichiga oladi. Jinoyat yorlig'i:

1. Xatti-harakatni yetarlicha tasvirlashi kerak;

2. Ushbu xatti-harakatning "ijtimoiy zarari"ni yetarlicha aks ettirishi kerak.²⁸

Ikkinchi element jamiyat hukmini ifoda etishni talab qiladi.²⁹ Yorliqlar "ramziy" va "deklarativ" funksiyalarga ega bo'lib, jinoyatchiga berilishi lozim bo'lgan qoralash darajasini ramziy qiladi va jamiyatga mazkur jinoyatga qanday qarash kerakligini ko'rsatadi.³⁰ Bu qoralash va tasvir umumiy jamoatchilikka tushunarli bo'lishi zarur.³¹ Masalan, "hujum" texnik jihatdan to'g'ri, lekin "keksalar zo'rvonligi" ma'lum jinoyatni va uning qo'shimcha qoralash darajasini aniqroq ifodalaydi.

Yorliqlar shuningdek adolatli bo‘lishi kerak. Bu adolat jinoyatchiga, qurbonga va jamoatchilikka tegishlidir. Jinoyatchi uchun yorliq xatti-harakatning mohiyatini aniq ifodalashi zarur. Qurbon uchun yorliq unga qanday zarar yetkazilganini va bu zarar uni qanday ta’sir qilganini ko‘rsatishi kerak.³² Ikkalasi ham jamoatchilik uchun adolatga bog‘langan. Agar jinoyat yorlig‘i xatti-harakatning og‘irligini neytral tarzda ko‘rsatsa, bu na jinoyatchi uchun, na qurbon uchun adolatli bo‘ladi, chunki xatti-harakatning haqiqiy mohiyati jamoatchilikka yetib bormaydi.³³ Jamoatchilik jinoyatning mohiyatini yorliqlardan anglay olishi kerak.³⁴

III. Bola zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasi tili

Adolatli yorliqlash tamoyili Buyuk Britaniyada jinoyat qonunchiligini qayta ko‘rib chiqish muhokamalari davomida paydo bo‘lgan. Ashvort va boshqalar bu yondashuvni jinoyat kodeksini tamoyillarga asoslangan holda qayta tuzish vositasi sifatida ilgari surdilar. Ushbu bob esa mazkur yondashuvni faqat qonunchilik tili bilan cheklab bo‘lmashini ta’kidlaydi. Yuqorida qayd etilgan adolatli yorliqlash unsurlari bola zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasi kabi ko‘plab sohalarida aniqlik va ravshanlikni ta’minlashi mumkin. Shuning uchun bu bob adolatli yorliqlash tamoyillarini faqat jinoyat kodeksidagi atamalarda emas, balki bola zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasiga oid barcha sohalarida ongli ravishda qo‘llashni taklif qiladi. Bu multidisplinar soha bo‘lgani uchun OAVda ham aniq va izchil tilga ehtiyoj mavjud.

Bola jinsiy zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasi masalalarida til va yorliqlar ko‘pincha noto‘g‘ri yoki izchil bo‘lmagan holda ishlatiladi, bu esa ayblanuvchilar, jabrlanuvchilar va jamoatchilik uchun adolatsizlikka olib keladi. Kamchiliklar faqat huquqiy terminologiyada emas, balki jamoatchilik muhokamalarida ham yetarlicha tasviriy bo‘lmagan atamalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Chunki OAV jinoyatchilik haqidagi axborotning asosiy manbai sifatida bola ekspluatatsiyasi va zo‘ravonligi jinoyatlarini noto‘g‘ri terminlar bilan ifodalashi, yuqorida qayd etilganidek, noaniq tilning keltirib chiqaradigan zararlarini yanada kuchaytiradi.³⁵

Jinoyat huquqi doirasida bola zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasi masalalarida aniq tildan foydalanish zarurati ayniqsa dolzarbdir. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi bo‘yicha NNT guruhi (UN NGO CRC) adolatli va kelishilgan atamalarga bo‘lgan ehtiyojni nafaqat ramziy, balki amaliy ahamiyatga ega deb tan olgan.³⁶ U muvaffaqiyatsizlikning sezilarli oqibatlarini muhokama qilar ekan, shunday deya ta’kidladi: “Agar bizda bolalarga nisbatan jinsiy zarar bo‘yicha aniq va kelishilgan ta’riflar bo‘lmasa, yig‘ilayotgan ma’lumotlar, ishlab chiqilayotgan strategiyalar, qabul qilinayotgan qonunlar va amalga oshirilayotgan

himoya mexanizmlari ehtimol buziladi.”³⁷ Aniq til jinoyat jarayonining barcha bosqichlarida talab qilinadi. Aks holda, jabrlanishni to‘liq tushunishga yordam beradigan ma’lumotlar buziladi. Boshqacha aytganda, noto‘g‘ri ma’lumot noto‘g‘ri xulosalarga olib keladi; xatoli xulosalar esa samarasiz choralar ko‘rilishiga sabab bo‘ladi; profilaktik xabarlar esa o‘z auditoriyasiga yetib bormaydi. Bu esa tergov, javob chorasi va oldini olish bosqichlarining barchasida muvaffaqiyatsizlikka uchraydigan jinoyat tizimini ifodalaydi. Aniq va izchil tildan foydalanishni talab qiluvchilar shuni ta’kidlashadiki, turli manfaatdor tomonlarning samarali hamkorligi bolalar boshidan kechiradigan zararlarni to‘g‘ri tushunish va bola zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasining turli shakllarini ajratib ko‘rsatishni talab etadi.

Masalan, barcha jinoyatchilarni “bolalarni jinsiy maqsadda ovlovchi shaxslar” deb atash muammoli. Bu ibora hayvoniy instinktga ega, begona odamning begunoh bolani zo‘rlilik bilan o‘g‘irlashga tayyorlanayotganini tasavvurga keltiradi. Ammo amalda ko‘pchilik jinoyatchilar jabrlanuvchilarga tanish bo‘ladi va ularni asta-sekin manipulyatsiya qilib, zarar yetkazadi. Bunday yorliq esa oldini olishga qaratilgan xabarlarini faqat kichik bir toifa jinoyatchilarga yo‘naltiradi va keng tarqalgan zo‘ravonliklarning oldini olish imkonini boy beradi.³⁸

Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik va ekspluatatsiyaga oid adolatli yorliqlash tamoyillariga erishish juda murakkab. Chunki bu turdagi jinoyatlar oilaviy doiradagi zo‘ravonlik, bolalarning jinsiy savdosi, bolalarning jinsiy zo‘ravonligini tasvirlovchi rasmlar ishlab chiqarish va boshqa ko‘plab shakllarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘limda adolatli yorliqlash tamoyillari hali bu sohada nega amalga oshmaganligi va hozirgi noaniq tildan foydalanish oqibatlari muhokama qilinadi.

A. Noto‘g‘ri yorliqlash sabablari

Bola jinsiy zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasi turli shakldagi qurbonlikning umumiy atamasi hisoblanadi. Bir tomondan, jabrlanish ko‘lami juda keng: har besh qizdan biri va yigirmata o‘g‘ildan biri 18 yoshgacha bo‘lgan davrida jinsiy tajovuzga uchraydi, har yettita o‘smirdan biri esa internetda notanish shaxs tomonidan jinsiy taklif oladi.³⁹ Ikkinchi tomondan, bu jabrlanishlarning ko‘plab quyi shakllari mavjud. Har bir shaklga samarali javob berish uchun jinoyat qurbonligining tabiati aniq tushunilishi kerak. Bundan tashqari, jabrlanishni to‘liq tushunishga to‘sqinlik qiluvchi ko‘plab to‘siqlar mavjud.

1. Ijtimoiy sukutlar

Bunday jabrlanishlar ko‘pincha “soyalarda” sodir bo‘ladi, deb to‘g‘ri ta’riflangan. Bunga qo‘shimcha ravishda, jabrlanishni yashirin tutuvchi boshqa kuchlar ham

37

mavjud. Mazkur to'siqlar bu holatlarning qayd qilinishini, to'g'ri talqin qilinishini va jamoatchilikka yo'naltirilishini cheklaydi.⁴⁰ Shuningdek, ushbu yashirinlik bola jinsiy zo'rvonligi va ekspluatatsiyasining barcha o'ziga xos kichik toifalarini aniqlik bilan tasniflash imkoniyatini qiyinlashtiradi.

Garchi bu jabrlanishlar keng tarqalgan bo'lsa-da, ko'pchilik odamlar ularning turli shakllari bilan shaxsan duch kelmagan: ular odam savdosiga tushmagan, bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasini tasvirlovchi materiallarni tarqatish tarmoqlariga qo'shilmagan va boshqalarni jinsiy tajovuz qilmagan. Shu sababli ular uchun hodisalarni tushunish uchun aniq ma'lumot zarur. Ammo jabrlanishlarning yashirinligi sababli bu ma'lumotlar keng ommaga yetib bormaydi. Natijada, hodisalarga nisbatan umumiy, yetarlicha aniq bo'lmagan yorliqlar qo'yiladi, chunki ularni aniqlik bilan belgilash uchun yetarli bilim yo'q.

Shu bois, ushbu yashirinlik yorliqlarning noaniq qo'yilishiga sabab bo'luvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yorliqlar ko'pincha OAV tomonidan belgilab qo'yiladi. Keyin esa jamoatchilik bu atamalarni eshitib, mavjud ma'lumotlarning yetishmasligi tufayli noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi va noto'g'ri talqin qiladi. Shunday qilib, jamoatchilik noaniq ma'nolarga ega bo'lgan atamalar orqali chalg'itilishi yoki noto'g'ri tushunilgan qurbonlik holatiga no'to'g'ri yorliqlar biriktirilishi mumkin.

Sukut faqatgina bola jinsiy zo'rlash va ekspluatatsiyasi haqida ochiq gapirishdagi muvaffaqiyatsizlikda emas. Bu, shuningdek, bunday holatlar haqida xabar bermaslikda ham namoyon bo'ladi. Bu esa nafaqat jabrlanish sonini ko'paytiradi, balki uni osonroq yashirish imkonini ham beradi. Jinoyatchilar ko'pincha ayrim zaifliklarga ega bo'lgan ijtimoiy chetlashgan qurbonlarni nishonga oladilar. Qurbonlarga yoki ularning vasiylariga bevosita kirish imkoniga ega bo'lgan jinoyatchilar qurbonlarini nafaqat zo'rlash yoki ekspluatatsiya qilish uchun, balki hodisadan keyin yoki doimiy ravishda davom etayotgan zo'rvonlik jarayonida sukut saqlashga ham o'rgatishlari mumkin.⁴¹ Bunday jinoyatchilar zaif bolalarni nishonga olibgina qolmay, balki ota-onalar, qarindoshlar va boshqalarni ham o'z maqsadlariga yo'naltiradilar: bu orqali ular nafaqat bolalarga kirish imkoniyatini qo'lga kiritadilar, balki bola yaqinlariga xabar bergan taqdirda unga ishonmaslikka ham tayyorlaydilar.⁴² Shu sababli jinoyat tafsilotlari, u qanday amalga oshirilishi va qurbonlarning boshidan kechirgan tajribalarini o'rganish ancha qiyin.

Axborotning yo'qligi va noto'g'ri yorliqlash o'rtasidagi aloqaga misol sifatida bolalarning jinsiy zo'rlash tasvirlarini "bola pornosi" yoki "bola pornografiyasi" deb atash mumkin. Bu, ehtimol, asl mazmunni bilmaslik natijasida yuzaga keladi va bu tasvirlar haqida noto'g'ri tushunchalarni kuchaytiradi. Jarayonning boshlanishi shundan iboratki, odamlarning aksariyati bunday tasvirlar bilan savdo qilmaydi va o'zi bunday qurbon bo'lmagan. Lekin ular bu tasvirlarni "bola pornosi" yoki "bolacha pornosi" kabi atamalar bilan eshitadilar. Oddiy odam

uchun bu so'zlar materialning jiddiy tabiatini ifodalamaydi; balki ular sleng hisoblanadi. Sleng esa ta'rifi ko'ra "beparvo, hurmatsiz yoki odobsiz" tildan iborat bo'lib, ekspluatatsiya va zo'rvonlik tasvirlariga nisbatan ishlatilmasligi kerak.⁴³ Shunga qaramay, bu atamalar jurnalistlar,⁴⁴ olimlar,⁴⁵ hatto Oliy sud sudyalari⁴⁶ tomonidan ham ishlatilmoqda. "Bola pornografiyasi" atamasi albatta "bola pornosi"ga qaraganda kamroq muammoli, ammo baribir ko'pchilikning tasavvurida kattalarga o'xshash yosh ko'rinadigan shaxslarning shahvoniy pozalardagi suratlarini keltiradi. Aslida esa tobora yoshroq bolalarni zo'rlash va zo'rvonlikni aks ettiruvchi, tobora zo'rvonlashib borayotgan surat va videolar to'plami nazarda tutiladi.⁴⁷ Natijada jamoatchilikning ushbu kontent haqidagi taassuroti noto'g'ri shakllanadi.

Ba'zilar shunday deya bahslashishi mumkin: jamoatchilik "bola pornografiyasi" so'ziga juda salbiy munosabat bildirayotgan ekan, demak ular materialning mazmunini to'g'ri tushunadi. Biroq bu fikr bir necha sababga ko'ra noto'g'ri. Avvalo, odamdan "bola pornografiyasi" haqidagi fikrini so'rashganda, bunga nisbatan murosali yoki ijobiy fikr bildirishi tasavvurga sig'maydi. Ikkinchidan, jamiyat bunday materialning mavjudligidan xavotirda ekanligi jamoatchilik uning asl mazmunini to'liq tushunadi, degan xulosaga olib kelmaydi. Masalan, odamlar "modda suiiste'moli" yoki "qarovsiz qolgan bola" kabi iboralardan ham xavotirga tushadi, lekin bu ularning buni to'liq anglay olishini bildirmaydi. Haqiqat shundaki, odamlarning aksariyati bolalarning jinsiy zo'rlash tasvirlari bilan savdo qilmaydi. Ammo ular kattalarning pornografiyasiga duch kelgan.⁴⁸ Pornografiya, agar u nomaqbul bo'lmasa, qonuniy bo'lishi mumkin. Oliy sud bunday materialni "erkinlik yoki axloqsizlikning moslashtirilishi (masalan, yozma asar yoki rasm) – jinsiy hayajon uyg'otishga mo'ljallangan erotik xulq-atvorning tasviri"⁴⁹ sifatida ta'riflagan bo'lsa-da, na Oliy sud, na hech bir apellyatsiya sudi uni aniq belgilamagan.⁵⁰ AQShda kattalar pornografiyasi o'zining sanoati, savdo uyushmasi va pullik "ijrochilari" bilan mavjud.⁵¹ Bu esa kattalar pornografiyasiga ixtiyoriy va maxsus ishlab chiqarilgan, ko'ngil ochish va jalb qilish uchun mo'ljallanganlik xususiyatini beradi. Bu esa bolalar pornografiyasi savdogarlari orasida sotiladigan material emas.

"Bugunki kunda federal jinoyatchilarda mavjud bo'lgan tipik materiallar prepubertat (balog'atga yetmagan) bolalarning kattalar, odatda erkaklar bilan ochiq-oydin jinsiy aloqada bo'lishini tasvirlaydi." Rasmlarning yarmida esa olti yoshdan kichik bolalar tasvirlangan.⁵² "Yo'qolgan va ekspluatatsiya qilingan bolalar milliy markazi" ma'lumotlariga ko'ra, bolalar tasvirlarining 76 foizi

balog'atga yetmagan bolalarga, 10 foizi esa chaqaloqlar va go'daklarga tegishli.⁵³ Ko'p tarqalgan tasvirlar orasida 84 foizida og'iz orqali jinsiy aloqa, 76 foizida anal yoki vaginal penetratsiya, 52 foizida jinsiy qurilmalar ishlatilishi, 44 foizida esa bog'lash va sadomazoxistik sahnalar mavjud.⁵⁴ 2012 yilda "Internet Watch Foundation" tomonidan tahlil qilingan tasvirlarning 81 foizidan ortig'i o'n yoshdan kichik bolalarni o'z ichiga olgan, ulardan yarmidan ko'pi esa kattalar va bolalar o'rtasidagi jinsiy aloqa, shu jumladan zo'rash va jinsiy qiynoqlarni ko'rsatgan.⁵⁵ Shuning uchun "bola" (jinsiy aloqa yoki ekspluatatsiyaga rozilik bera olmaydigan shaxs) va "pornografiya" (ixtiyoriy ishlab chiqarilgan shahvoniy ko'ngilochar material) so'zlarini birlashtirish, eng yaxshi holatda, aniq emas, eng yomon holatda esa chalg'ituvchi bo'ladi. Eng yaxshi holatda, odamlar albatta bu tasvirlarni savdo qilish g'oyasidan noqulaylik his qilsalar ham, ularning mazmunidan bexabar bo'lib qoladilar, va "bolalar pornografiyasi" iborasi uni aniq va to'g'ri tarzda yetkazmaydi. Eng yomon holatda esa, bu atama odamlarni mazmunni ilgari ularning pornografiya haqidagi tushunchalari bilan bog'lashga undaydi, natijada tasvirlar kattalar pornografiyasiga o'xshash, rozilik bildirgan shaxslar ishtirok etgan deb noto'g'ri talqin qilishga imkon qoldiradi — bu esa qonuniy jihatdan imkonsiz.

Shuningdek, sudlardagi jazolash amaliyotlari ham "bola pornografiyasi" yorlig'ining noto'g'riligini ko'rsatadi. Bolalar pornografiyasi jinoyatchilari uchun federal jazo yo'riqnomalari bo'yicha faol munozara mavjud. Aslida, Adliya departamenti hamda boshqa ko'plab tashkilotlar Jazo tayinlash komissiyasining ushbu yo'riqnomalarni qayta ko'rib chiqishi va yangilashi kerakligini, jinoyatchilarning bu tasvirlarni yig'ishdagi zamonaviy usullarini aks ettirishi lozimligini ta'kidlaydi, shunda yo'riqnomalar "aybdorlarning jinoyat harakatlarining og'irligi va aybliligi darajasini yaxshiroq aniqlay oladi".⁵⁶ Bu munozara ushbu bobning doirasidan tashqarida.

Ba'zi sudyalar tomonidan belgilangan yengilroq jazolarni faqat federal jazoni belgilash bo'yicha ko'rsatmalarga bo'lgan nizolar bilan tushuntirib bo'lmaydi, chunki shunga o'xshash yengil jazolar shtat darajasida ham mavjud bo'lib, u yerda bunday nizo yo'q.⁵⁷ Ba'zi jazoni belgilash amaliyotlari kuzatilganda, bu holatlar tasvirlarning yetkazadigan zarari va jinoyatning jiddiyligini chuqur tushunmaslikdan dalolat beradi. Bola pornografiyasiga oid jinoyatchilar orasida — ya'ni ishlab chiqaruvchilar, tarqatuvchilar va egalar orasida — egalar (ya'ni faqat saqlovchilar) jiddiy jinoyatchilar bo'lishiga qaramay, ehtimol eng kam og'ir jinoyatchilar sifatida qaraladi. Bundan tashqari, ushbu saqlovchilar guruhida ham, har qanday jazoni belgilovchi sud jinoyatning tabiati va holatlari, shuningdek, ayblanuvchining tarixi va shaxsiy fazilatlarini hisobga olib, mos jazo choralari belgilashi lozim.⁵⁸

Shunga qaramay, ko‘plab hukmlar bola pornografiyasining asl mohiyatini tushunmaslikni aks ettiradi. Hamilton va Rogers ta’kidlaganidek, ba’zi bir birinchi instansiya sudlari bolalarning jinsiy zo‘ravonlik aks etgan tasvirlarini faol ravishda to‘plashni “depressiya” oqibati, internetda izlashning “osonligi va qaramlik xususiyati” bilan, “passiv”, “zararsiz”, “zerikish va ahmoqlik” mahsuli, e’tibor qidirish yo‘li sifatida yoki hatto jinoyatchilarni jamiyatdagi “hurmatli” yoki “tayanch” shaxslar deb ta’riflash orqali izohlagan.⁵⁹ Ba’zi sudyalari esa ayblanuvchilarni og‘ir jazolarning qurboni sifatida tasvirlab, ularning sud jarayonlarini hattoki jodugarlik sudlariga o‘xshatganlar.⁶⁰ Ba’zi sudlar bu kabi tasvirlarni va ayblanuvchilarni shunday ta’riflashni “tashqi ko‘rinish bilan haqiqat o‘rtasidagi dahshatli tafovut”⁶¹ deb rad etgan bo‘lsalar-da, bu noto‘g‘ri tushunchalar — tasvirlarning mazmuni va ulardagi jabrlanuvchilarning boshidan kechirgan azob-uqubatlarini anglamaslik — tadqiqotchilar va olimlar tomonidan tanqid qilingan noto‘g‘ri “yorliqlarning” zaifligini ko‘rsatadi.⁶²

“The Guardian” gazetasi yaqinda shunday qaror qildi: “‘Bola pornografiyasi, bola pornosi, bolacha pornosi’ kabi atamalar qabul qilinmaydi. Bunday so‘zlar ishlatilishi aslida pornografiya bo‘lmagan tasvirlarni qonuniylashtirishga xizmat qiladi, bu tasvirlar bolalarning jinsiy ekspluatatsiya qilinayotganining doimiy yozuvlaridir.”⁶³ “Bola pornografiyasi” atamasi jabrlanuvchilarning boshidan kechirgan azob-uqubatlarini kamsitadi, chunki bu ibora pornografiya bilan bog‘liqlikni anglatadi, bu esa ayrim hollarda qonuniy bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ishtirokchilari rozilik bildirgan va rozilik berishga qodir bo‘lgan harakatlarni nazarda tutadi.

Aslida esa jinsiy zo‘ravonlik va ekspluatatsiya bu murakkab xatti-harakatlardir. Ularning chegaralarini imkon qadar aniq belgilashga urinish “barcha muhim tafsilotlar va ularning ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirmasligi” kerak⁶⁴. Biroq, bu xatti-harakatlarni aniq va to‘g‘ri tasvirlash nihoyatda muhimdir.

2. Ijtimoiy omillar

Bola jinsiy zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasining sodir bo‘lishi yoki uning jiddiyligini tushunishni chalg‘ituvchi bir qator ijtimoiy omillar mavjud bo‘lib, bu holat faqat ilgari tilga olingan sukut bilan cheklanmaydi. Bular orasida ijtimoiy xabarlar, moliyaviy ta’sirlar va jinoyatchilarning xususiyatlari mavjud.

Bola jinsiy zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasining halokatli travmasi bolalarni jinsiy obyekt sifatida ko‘rsatishni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy xabarlar bilan to‘la bir dunyoda mavjud.⁶⁵ Bu o‘smirlar yoki yetilayotgan yoshlarning jinsiyliги bilan aralashtirilmasligi kerak, bu holat inson rivojlanishi va yetilishi jarayonining tabiiy

qismidir. Gap aynan shundaki, bu bolalar kattalar tomonidan jinsiy foydalanish uchun jinsiy obyektlar ekanligini ko'rsatadigan o'ziga xos obyektivlashtirishdir.⁶⁶ Bu kabi xabarlar jamiyatga ta'sirsiz o'tmaydi. Ular jabrlanuvchilar va jinoyatchilarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar foydalanuvchi tovarlar kabi obyekt sifatida tasvirlanganda, bu ularni "tayyorlash" (grooming) uchun asos yaratadi va jabrlanuvchilarga zarar yetkazadi.⁶⁷ Shu bilan birga, bu xabarlar jinoyatchilarning ekspluatatsion va zo'raonlikka moyil xatti-harakatlarini oqlaydi va ba'zi obyektlashtirish shakllarini "odatdagi holat" sifatida qabul qilinishiga olib keladi.

Ikkinchi ijtimoiy omil bu haqiqatni tushunishni yanada chalg'ituvchi omil — bola jinsiy zo'raonligi va ekspluatatsiyasi bilan bog'liq tijorat yo'nalishlaridan olinadigan foyda bo'lishi mumkin. Bola jinsiy ekspluatatsiyasining og'irligi ushbu sohaning moliyaviy miqyosi tufayli ko'zdan qochishi yoki ahamiyatsizdek ko'rinishi mumkin. Ba'zi hollarda bolalarning jinsiy zo'raonlik aks etgan tasvirlarini ishlab chiqarish yoki ularni jinsiy savdoga qo'yish kabi jinoyatlarda "qonuniy" korxonalar ham ishtirok etgani bu zo'raonlikni anglashni qiyinlashtiradi. Bola ekspluatatsiyasi va odam savdosi sanoati yillik daromadi milliardlab dollar bilan baholanadi.⁶⁸ Bu daromadlar faqat jinoyatchilarga emas, balki ularning faoliyatini bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlovchi boshqa sohalarga ham boradi. Masalan, ayrim reklama beruvchilar, mehmonxonalar va taksichilar jinsiy savdodagi mijozlarga xizmat ko'rsatish orqali daromad olishlari mumkin.⁶⁹ Shuningdek, Bola pornografiyasiga qarshi moliyaviy koalitsiya tashkil etilishidan oldin, ba'zi moliyaviy institutlar bolalarning jinsiy zo'raonlik aks etgan tasvirlari bilan savdo qilishdan foyda ko'rgan.⁷⁰ Bugungi kunda esa, Bitcoin kabi anonim raqamli valyutalar aynan shu turdagi jinoyatchilar tomonidan qadrlanadi, chunki ular iz qoldirmaslik imkonini beradi.⁷¹ Qonuniy biznes bilan jinoyat faoliyati o'rtasidagi chiziq yo'qolganda:

- (a) bu jinoyatkor tadbirkorlarning quvvatlanishiga, ya'ni noqonuniy faoliyatni kapital bilan ta'minlashga olib keladi;
- (b) jinoyat xatti-harakatlarining ba'zi jihatlari qonuniydek ko'rinish, ularning jamiyatda normallashtirishiga sabab bo'ladi.

Ko'plab jinoyatchilar keng tarqalgan, ammo to'g'ri bo'lmasligi mumkin bo'lgan jinoyatchilik stereotiplariga mos kelmasligi ham bola jinsiy zo'raonligi va ekspluatatsiyasi sodir bo'lishi takroriyliigi va zararini anglashni chalg'itishi mumkin. Masalan, bolalarning jinsiy zo'raonligini aks ettiruvchi tasvirlarni saqlovchi shaxslar asosan oq tanli erkaklar ekani aniqlangan bo'lib, ularning ko'pchiligi yuqori ma'lumotli va boshqa irqiy guruhdagi jinoyatchilarga qaraganda ish bilan bandlik darajasi yuqori.⁷² Garchi federal hukm ko'rsatmalarida ishlab

chiqmagan (ya'ni o'zi bunday tasvirlarni yaratmagan) jinoyatchilar uchun belgilangan jazolar haqida ko'p yozilgan bo'lsa-da, federal sudyalari bu guruhga tegishli ayblanuvchilarga ko'pincha yumshoqroq munosabatda bo'lishadi. Federal hukm ko'rsatmalariga nisbatan qaraganda, sudyalari bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasini aks ettiruvchi tasvirlarni saqlovchilarga boshqa ko'plab federal jinoyatchilar guruhlariga nisbatan yengilroq jazo belgilaydilar.⁷³ Shuningdek, beshdan to'rt bunday saqlovchi prokurorlar yoki sudyalari tomonidan qo'llaniladigan jarima xavfini kamaytirish usullaridan foyda ko'radi, bu esa ularning jazoga tortilish darajasini pasaytiradi.⁷⁴

Ushbu jazoni belgilash amaliyoti ko'proq oq tanli, boyroq va yuqoriroq ma'lumotga ega jinoyatchilar guruhiga nomutanosib darajada foyda keltiradi. Bu esa jamoatchilikka jabrlanuvchilar boshidan kechirgan tajribaga zid bir xabarni yuboradi: ya'ni bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasini aks ettiruvchi tasvirlarni saqlash jiddiy jinoyat bo'lib, u bolalarga bevosita zarar yetkazadi, jabrlaydi.⁷⁵ AQSh Adliya departamenti ta'kidlaganidek, federal sudyalari va ommaviy axborot vositalari ushbu tasvirlar bilan savdo qiluvchilarning jinoyatlarining jiddiyligiga emas, balki ularning tashqi ko'rinishiga ijtimoiy maqomiga ko'proq e'tibor qaratadi.⁷⁶ Bu tafovutning sababi shundaki, bola pornografiyasi bilan bog'liq jinoyatchilar ko'pincha sudyalarning o'z demografiklariga ya'ni oq tanli, yuqori darajada ma'lumotli va yuqori daromadli erkaklar o'xshab ketadi, bu esa ularni boshqa jinoyatchilar guruhlaridan farqlantiradi. Hamiltonning qayd etishicha, ko'plab sudyalari bu jinoyatchilarni oddiy, hatto hurmatga sazovor erkaklar sifatida tasvirlaydi (ayol ayblanuvchilar juda kam uchraydi), ularning yagona "kamchiligi" esa bola pornografiyasiga qiziqish sifatida ko'rsatiladi.⁷⁷ Quyida batafsil muhokama qilinadiganidek, bola pornografiyasi savdosini "kamchilik" deb talqin qilish — jinoyatchining ijtimoiy maqomi (ma'lumotli, yuqori daromadli, oq tanli erkak) asosida ularni o'z jinoyati bilan bolalarga yetkazgan zarardan ajratish xavfini tug'diradi.

B. Noto'g'ri atamalardan foydalanish oqibatlarini

1. Tushunmovchilik

Noto'g'ri atamalardan foydalanish jamiyatning bola jinsiy zo'ravonligi va ekspluatatsiyasini qanday tushinishiga ta'sir qiladi. Jamiyat jinoyatni qanday tushunsa, unga qanday javob berish va oldini olish harakatlari ham shunga qarab shakllanadi. Bola jinsiy zo'ravonligi yoki ekspluatatsiyasini ifodalashda turli so'zlar qo'llaniladi va bu so'zlarning mazmuniy farqlari bor. Ularni bir-birining o'rniga ishlatish esa tushunmovchilikka olib keladi.⁷⁸ Agar jinoyatni tasvirlashda

yetarlicha aniq bo'lmagan atamalar tanlansa, unga nisbatan noto'g'ri yondashuv yuzaga keladi. Bunday tushunmovchilik esa zararli xatti-harakatlarning kamaytirilishi yoki hatto odatiylashtirilishiga olib keladi. Masalan, bir bola "qo'shmachi tomonidan boshqariladigan tijorat jinsiy aloqalar"da ishtirok etgan bo'lsa, uni "o'smir fohisha" deb atash bir turdagi tasavvur uyg'otadi. Ammo uni "bola jinsiy savdosining qurboni" deb atash butunlay boshqa, ancha aniq va haqiqatga yaqin tasavvur hosil qiladi. Birinchi atama faqatgina "pul evaziga jinsiy aloqa"ning noqonuniyligini bildiradi, ikkinchi atama esa bolani qurbon sifatida ko'rsatadi va jinsiy savdo sanoatining keng tarqalganligini ochib beradi.

2. Haddan tashqari vahima yoki befarqlik

Noto'g'ri atamalardan foydalanish faqat tushunmovchilik emas, balki haddan tashqari vahima yoki yetarlicha e'tibor bermaslik holatlariga olib kelishi mumkin. Bu esa jamiyatga ijtimoiy muammoni to'g'ri baholash imkonini bermaydi. Masalan, OAVda o'smirlar o'rtasidagi "sexting" ya'ni jinsiy tusdagi matnli xabarlar yoki rasmlar yuborilishi haqidagi dastlabki hikoyalar asosidagi da'volar yoki so'rovnoma natijalari ortidan bu mavzuga milliy darajada e'tibor ko'paydi. Ammo, muammo shundaki, OAV "sexting" atamasini aniq belgilamasdan, uni quyidagilarni o'z ichiga olgan keng doiradagi harakatlarga nisbatan ishlatdi. Bir tomondan jinsiy tusdagi matnlar, yalang'och suratlar, jinsiy suratlar, boshqa tomondan hattoki jinsiy zo'rvonlik harakatlarini videoga olish.⁷⁹ Bu noto'g'ri va umumiy atama asosida tuzilgan tasvir, yoshlarning katta qismi bunday tasvirlarni ishlab chiqayapti degan noto'g'ri xulosani paydo qildi. Natijada, bu vahimali, ammo asossiz reaksiyaga sabab bo'lib, muammoning noaniq va soddalashtirilgan talqiniga olib keldi.⁸⁰

Aksincha, ba'zi atamalar ekspluatatsiyaning ayrim shakllarini kamaytirib ko'rsatish yoki ularni odatiy hol sifatida qabul qilishga olib keladi. Bunga quyidagi fahsh tadqiqotchisi keltirgan misol yorqin dalildir:

"Strip-klublarda sodir bo'ladigan jinsiy ekspluatatsiya jinsiy ifoda va o'zining jozibasini raqs orqali namoyish qilish erkinligi sifatida qayta taqdim etilmoqda. Fohishaxona degan so'z o'rniga esa 'qisqa muddatli mehmonxona', 'massaj saloni', 'sauna', 'sog'lomlashtirish klubi' yoki 'seksual uchrashuv markazi' kabi atamalar ishlatilmoqda.

*Seulda o'smirlar bilan jinsiy aloqa qilish uchun pul to'laydigan erkaklar buni 'kompensatsiyalangan uchrashuvga chiqish' deb atashadi. Tokioda esa fohishalikni 'ko'makli jinsiy aloqa' deb atashadi."*⁸¹

Bu misollar kattalar prostitutsiyasiga oid bo'lsa-da, u ekspluatatsiyaning muayyan shaklini oqlash va uni qonuniydek ko'rsatishga qaratilgan ataylab qilingan urinishlarni ochib beradi.

Milliy fanlar akademiyasi jinsiy savdo va bolalar jinsiy ekspluatatsiyasi bilan bog'liq atamalarining bir-biriga mos kelmasligi haqida fikr yuritir ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi "ushbu muhim atamalardan aniq va izchil foydalanish quyidagi maqsadlar uchun zarur:

- jinoyatlarni chuqur tushunish;
- tegishli tadqiqotlarni yuritish, baholash va taqqoslash;
- bolalarga nisbatan sodir bo'layotgan bu zo'ravonliklarga qarshi mos qonunlar, siyosatlar va dasturlar ishlab chiqish."⁸²

Faqat ekspluatatsiyaning haqiqiy jihatlarini aniq tushunish orqali manfaatdor tomonlar real muammolarga qarshi samarali siyosat ishlab chiqishi mumkin. Aks holda, mavjud bo'lmagan yoki shishirib ko'rsatilgan muammolarga qarshi noto'g'ri strategiyalar paydo bo'ladi. Shuningdek, noqonuniy xatti-harakatlarni qonuniylashtiradigan tarzda qayta talqin qilish ham shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yuqorida tilga olingan "sexting"ga bo'lgan ortiqcha vahima bunga yorqin misol bo'la oladi. Atama turli-tuman holatlarga nisbatan ishlatilgani bois, umumiy chalkashlik yuzaga keldi. Ko'pchilik ushbu atamani o'zi ishlab chiqilgan jinsiy zo'ravonlik tasvirlariga nisbatan ishlatiladi, deb tushungan, ba'zi ommaviy axborot vositalari esa ushbu atamani yoshlar tomonidan jinsiy mazmunda xabarlar yuborish kabi nisbatan kamroq xavfli xatti-harakatlarni ham qamrab olgan tarzda ishlatgan. Terminologiyadagi bu chalkashlik ko'plab odamlarni o'zlarini jinsiy mazmunda tasvirlayotgan bolalar sonini ortiqcha baholashga olib kelgan, bu esa keyinchalik tadqiqotlar ushbu xatti-harakat normativ emasligini ko'rsatguncha vahima yuzaga kelishiga yordam bergan.⁸³ Bundan tashqari, shu nomuvofiq atamaning ishlatilishi boshqalar tasvirlarini yuborish yoki tarqatish kabi muhim kichik muammoni e'tibordan chetda qoldirgan.⁸⁴ Qisqasi, "sexting" atamasi allaqachon noto'g'ri tushunilgan fenomenni yanada chalkashtirgan.⁸⁵

3. Huquqiy oqibatlar

Yetarlicha aniq bo'lmagan atamalardan foydalanishning yana bir salbiy oqibati bu muayyan atamalarining huquqiy oqibatlari bilan bog'liq. Chunki atamalar ahamiyatlidir, ular qonun normalari bilan bevosita bog'liq. Agar bir harakat qonundagi ta'rifga mos kelsa, u holda u jinoyat kodeksining tegishli moddalari asosida jinoyat deb baholanadi. Masalan, "bola jinsiy turizmi" atamasi ko'pchilik manfaatdor tomonlar tomonidan quyidagicha tushuniladi: bir shaxs bir hududdan boshqasiga sayohat qiladi va u yerda bolalar bilan jinsiy aloqada bo'ladi. Biroq ushbu xatti-harakat uchun qachon jazo chorasi qo'llanilishi kerakligi borasida tushunmovchiliklar mavjud. Shuning uchun, bu holatni aniq tushuntirish zaruratga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Bola huquqlari bo'yicha nodavlat tashkilotlar qo'mitasi (UN NGO CRC) bu xatti-harakatni quyidagicha

aniq belgilash zaruratini sezdi: bu jinoyat faqat bola bilan jinsiy aloqada bo'lish maqsadida sayohat qilgan shaxslarga (ya'ni preferensial bola jinsiy jinoyatchilariga) emas, balki sayohatga chiqqanidan keyin, aynan joyiga borgach, bola bilan jinsiy aloqa qilish niyatini shakllantirgan shaxslarga (ya'ni vaziyat ta'sirida jinoyat sodir etgan jinoyatchilarga) ham taalluqli bo'lishi kerak.⁸⁶ Agar bu ta'rif kengaytirilmaganida, ushbu jinoyatni sodir qilgan shaxslarning muayyan guruhi bilmasdan turib qonunlardan chetda qolgan bo'lardi, ya'ni ularga nisbatan jazo choralari qo'llanilmasdi. Bunday huquqiy bo'shliq esa aynan noaniq, yetarlicha tushuntirilmagan atama natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun faoliyat yoki xatti-harakatlarni ifodalovchi tavsiflovchi atamalar qonuniy ta'riflar bilan muvofiq bo'lishi shart, shunda ushbu qonunbuzarliklarni aniqlash, o'lchash va baholashda barcha ishtirokchilar uchun umumiy va tushunarli asos mavjud bo'ladi.

BMTning Bola huquqlari bo'yicha nodavlat tashkilotlar qo'mitasi nima sababdan ta'riflardagi aniqlik muhim ekanini tushuntirib beradi. Jamiyatning asosiy maqsadi bola jinsiy zo'ravonligi va ekspluatatsiyasini kamaytirish va butunlay tugatishdir. Bu maqsadga erishish yo'lida birinchi qadam bu zo'ravonlikning o'zini va u bilan bog'liq barcha murakkab jihatlarni aniq va ravshan tushunib ifodalashdir. Shu asosda jamiyat samarali oldini olish dasturlarini ishlab chiqishi va oldini olish muvaffaqiyatsiz bo'lgan hollarda, turli sohalarni jalb qilgan holda chora ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo bu sa'y-harakatlarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi, aynan o'sha tushunchaning aniqligi va to'g'riligiga bog'liq bo'ladi. UN NGO CRC ta'kidlaganidek "agar bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq aniq va umumiy qabul qilingan ta'riflarga ega bo'lmasak, yig'ilayotgan ma'lumotlar, ishlab chiqilayotgan strategik choralar, qabul qilinayotgan qonunlar, va ishlab chiqilayotgan himoya mexanizmlari zarar ko'radi."⁸⁷ Ushbu nodavlat tashkilot aniq atamalarda umumiy tushunchaga ega bo'lish zarurati bu faqat huquqiy yoki ilmiy masala emas, ko'p sohalarni qamrab oluvchi ijtimoiy ehtiyojini tushungan edi. Jamiyat tomonidan samarali qarshi chora ko'rish nafaqat oldini olish, balki bu xatti-harakatlarni to'xtatish bo'yicha jamiyatning barcha qatlamlari murakkab jinsiy zararlarning haqiqatlarini to'liq tushunishiga bog'liq.⁸⁸

Noto'g'ri atamalardan foydalanishning oqibatlarini faqatgina oldini olish choralari yoki huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilangina cheklanmaydi bu muammo sud jarayonlariga ham bevosita taalluqlidir. Agar xatti-harakatlar noto'g'ri atamalar bilan nomlansa, jinoyatlar yetarli darajada aniq ta'riflanmasa yoki bola jinsiy zo'ravonligi va ekspluatatsiyasi bilan bog'liq til bir xilda va yetarli aniqlikda ishlatilmasa, unda voqealarning to'liq bo'lmagan tasviri shakllanadi. Agar aynan mana shu to'liq bo'lmagan tasvir jinoyatning jiddiyligini yumshatib ko'rsatsa masalan, jinoyatga "bola pornografiyasi" deb nom berilgani kabi unda sudlar va jamiyat bu jinoyatlarni yetarlicha jiddiy deb baholamaydi. Yuqorida muhokama qilinganidek, sudlarning sharhlari va hukmlari,

ayniqsa bola jinsiy zo‘ravonligini o‘z ichiga olgan, lekin rasm yoki video ishlab chiqilmagan holatlar bo‘yicha, jazoni belgilovchi federal ko‘rsatmalardan boshqa har qanday jinoyatlarga qaraganda ko‘proq og‘ib ketgan.⁸⁹ Sudlarning ko‘plab qarorlarida ishlatilgan tildan shuni anglash mumkinki, ular bola pornografiyasini ishlab chiqmagan, faqat uni saqlagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni nisbatan kamroq jiddiy deb qarashadi.

Quyidagi holatni ko‘rib chiqing: *United States v. Reingold* (AQSh Reingoldga qarshi) ishi. Bu ishda AQShning Ikkinchi apellyatsiya okrug sudi tuman sudining hukmini bekor qilgan.⁹⁰ Tuman sudi bola pornografiyasini tarqatganlikda aybini tan olgan va bundan tashqari, o‘gay singlisi bilan amalda jinsiy aloqa qilganini tan olgan ayblanuvchiga nisbatan, ushbu jinoyat uchun belgilangan majburiy minimal jazoni qo‘llamagan.⁹¹ Ikkinchi apellyatsiya sudi tuman sudiga yana bir bor eslatdi: bolalar jinsiy zo‘ravonligini aks ettiruvchi materiallarni tarqatish bu “jiddiy jinoyat bo‘lib, zaif va himoyasiz qurbonlarga real va tez-tez zo‘ravonlik bilan bog‘liq zarar yetkazadi.”⁹² Biroq tuman sudi bu fikrni anglamagandek tuyuldi. Sud hattoki ayblanuvchining bu xatti-harakatini “shunchaki o‘zaro fayl almashinuvi” deb ta‘riflagan.⁹³ Shunga o‘xshash holat *United States v. Campbell* ishida ham kuzatilgan. Bu ishda tuman sudi sudyasi avvaliga shunday degan: “Bunday tasvirlar bolalarga zarar yetkazadi.” Ammo sudya ushbu ish doirasida ko‘rilgan tasvirlarni quyidagicha tavsiflagan: Ularda Sharqiy Yevropadan (taxminan 13–15 yoshdagi) qizlar jinsiy ochiq-oydin holatda tasvirlangan bo‘lsa-da, ularni “nisbatan yengil” deb baholagan.⁹⁴ Sudya bu xulosasini shunday asoslagan: bu qizlar balog‘atga yetmagan emas va ularda kattalar bilan jinsiy aloqani aks ettiruvchi penetratsiya (ya‘ni jismoniy kirishish) mavjud emas. Garchi bu holat videoga olingan jinsiy tajovuz kabi og‘ir bo‘lmasa-da, ikki nafar ekspluatatsiya qilingan qizda jinsiy penetratsiyaning yo‘qligi bu tasvirlarni “yengil” deb hisoblash uchun asos bo‘la olmaydi. Yana bir bor ta‘kidlash kerakki, bunday jinsiy ochiq tasvirlarga yengil qarash, ularni ko‘pincha voyaga yetganlar pornografiyasiga xos bo‘lgan rozilikka asoslangan yoki ixtiyoriy faoliyat deb tasavvur qilishga olib keladi. Shu holatlarda ishlatilgan ta‘riflar aynan bolalar pornografiyasi atamasi bilan bog‘liq qator muammolarni ochib beradi. Bu borada Save the Children (Bolalarni Asraylik) nomli xalqaro nodavlat tashkiloti Yevropa Kengashi qonunchiligidagi ta‘riflarni qayta ko‘rib chiqishda quyidagilarni ta‘kidlagan: “‘Bola pornografiyasi’ atamasi jinoyatning jiddiyligini pasaytiradi, chunki bu atama bola zo‘ravonligini voyaga yetganlar uchun qonuniy bo‘lishi mumkin bo‘lgan pornografik faoliyat bilan bog‘lab qo‘yadi. Aslida esa, ‘bola pornografiyasi’ har doim bolaning jinsiy zo‘ravonligi va ekspluatatsiyasini o‘z ichiga oladi, va shuning uchun bu har doim bola ustida sodir etilgan jinoyatga oid

dalildir."⁹⁵ Shu sababdan, "bola pornografiyasi" degan atama bunday noto'g'ri bog'lanishlarga sabab bo'lishi mumkinligi bois, qonunchilik va sud amaliyotidan butunlay chiqarib tashlanishi kerak.

IV. Bola jinsiy zo'rvonligi va ekspluatatsiyasida adolatli yorliqlardan foydalanish

Bola jinsiy zo'rvonligi va ekspluatatsiyasi haqida gap ketayotganida, bu mavzu jabrlanish, ziddiyatli ijtimoiy xabarlar, normalashtirish va madaniy chalkashliklar bilan to'la bir muhitda ifodalanadi. Aynan mana shu sharoitda bu masalaga doir til chalkash va noaniq bo'lib qoladi. Noto'g'ri va to'g'ri xatti-harakatlar o'rtasidagi farq xiralashadi. Turli xil faoliyatlar umumiy tushunchalar ostida birlashtirilib yuboriladi. Bu esa ikki xil, ammo birdek salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Birinchidan: Faoliyatlar haddan tashqari umumlashtirilib, jabrlanuvchilik kamaytiriladi. Masalan, "bolalarning tijorat jinsiy ekspluatatsiyasi" atamasi ba'zi hollarda haddan tashqari "yumshatilgan" yoki "tozalangan" deb tanqid qilinadi. Bu atama ko'pincha ushbu holatlardagi zo'rvonlik darajasini yetarlicha ifodalay olmaydi va e'tiborni bolaning o'ziga emas, faoliyatning tijorat tomoniga qaratadi.⁹⁶ Ikkinchidan, atamalar haddan tashqari keskin yoki vahimali bo'lib ketadi. "Jinsiy zo'rvon" degan atama, jinsiy jinoyat sodir etgan turli shaxslarga nisbatan ishlatilgan. Bu esa turlicha va bir-biridan keskin farq qiluvchi jinoyatlar (masalan, beaxloq tarzda tanani ochib ko'rsatish va og'irlashtirilgan zo'rqlash) bir xil toifada baholanadi.⁹⁷

Oldingi bo'limlarda muhokama qilinganidek, bola jinsiy zo'rvonligi va ekspluatatsiyasi haqidagi muloqotda adolatli yorliqlardan foydalanish zarurati mavjud. Biroq, bu faqatgina amaldagi qonunlardagi yorliqlarni to'g'ri belgilash bilangina cheklanmasligi kerak. Chunki bola jinsiy zo'rvonligi va ekspluatatsiyasi ko'plab boshqa sohalarga ham ta'sir qiladi, shuning uchun bu tashabbus faqat qonunchilik doirasida emas, balki ilmiy, professional va bolalar bilan ishlovchi sohalarda ham aniq va tushunarli ta'riflarni o'z ichiga olishi kerak. Quyida, aynan muammoli bo'lib kelgan ba'zi atamalar muhokama qilinadi. Bu tushunchalarga adolatli yorliqlash tamoyilini qo'llash, ayrim atamalarning bekor qilinishi va o'rniga yangi, aniqroq atamalar qabul qilinishi zarurligini asoslaydi.

A. "Bola" atamasi

"Bola" atamasi butun dunyoda bir xil ma'noga ega emas. Qo'shma Shtatlarda turli yurisdiksiyalar "bola" yoki "voyaga yetmagan" tushunchasini har xil yosh chegarasi bilan belgilaydi. Hatto bir yurisdiksiyada ham, inson bir maqsad uchun "bola" deb qaralishi mumkin, masalan, saylov huquqiga ega emas, lekin boshqa maqsadlar uchun "katta" deb hisoblanishi mumkin, masalan, turmush qurishga

ruxsat beriladi. Aksariyat (lekin hammasi emas) federal qonunlar, 18 yoshdan kichik shaxslarni voyaga yetmagan deb hisoblaydi. Ammo bu universal qoidaga aylangan emas.⁹⁸ Xalqaro miqyosda esa bolalik qachon boshlanadi va tugaydi degan savolga turli mamlakatlar va madaniyatlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi mamlakatlarda qizlar 13 yoshida turmushga chiqishi mumkin, yoki har qanday yoshdagi bolalarning mehnat qilishiga ruxsat beriladi. Boshqa davlatlar esa to'liq huquqli voyaga yetganlikni 18 yoshgacha kechiktiradi.

Bu chalkashlik holati shuni anglatadiki, hatto quyidagi xalqaro hujjatlarda ham bola degani 18 yoshga to'lmagan shaxs deb aniq aytilgan bo'lsa-da, bu yagona standartga amal qilinmayapti. Bola huquqlari konvensiyasi, Palermo protokoli, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 182-sonli konvensiyasi (ILO #182) hujjatlarning barchasi bir fikrni bildiradi: 18 yoshdan kichik har qanday inson bola hisoblanadi.⁹⁹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari bo'yicha NNT qo'mitasi quyidagi fikrni bildirgan: "ushbu universal qoidadan og'ishish "chuqur xavotirli" holatdir. Har qanday 18 yoshdan kichik insonni bola sifatida tan olishdan chekinish, bolalarning zo'ravonlik va ekspluatatsiyaga nisbatan zaifligini yanada kuchaytirgan."¹⁰⁰

Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiya kontekstida "bola" atamasi 18 yoshgacha bo'lgan barcha shaxslarni o'z ichiga olishi kerakligi tushunilishi lozim. Bu tushuncha so'nggi yillarda Oliy Sudning bir nechta qarorlarida tasdiqlangan. O'n yildan ortiq vaqt davomida ko'plab yosh jinoyatchilar bilan ishlovchi mutaxassislar 18 yoshgacha bo'lgan yosh jinoyatchilarga alohida yondashuvni qo'llash tarafdori bo'lishgan. *Roper v. Simmons* ishida Sud 18 yoshga yetmagan jinoyatchiga o'lim jazosini qo'llashni konstitutsiyaga zid deb topdi. *Graham v. Florida* ishida esa sudlar yosh jinoyatchilarni (qotillik qilmagan jinoyatlarda) umrbod qamoqqa olish va shartli muddatdan mahrum etish taqiqlanganini belgiladi. *Miller v. Alabama* ishida esa har qanday jinoyat uchun yosh jinoyatchilarga umrbod qamoq jazosi (shartli muddatsiz) tayinlash konstitutsiyaga zid deb topildi. Bu ishlar 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar va kattalar o'rtasidagi uchta umumiy farqni aniqladi.¹⁰¹ Ushbu farqlar voyaga yetmagan shaxsning "cheklangan qobiliyati"ni tushunish asosini tashkil qiladi, jumladan:

1. Yetuklik yetishmasligi va javobgarlik tuyg'usining rivojlanmaganligi;
2. Salbiy ta'sirlarga va tashqi bosimlarga yuqori sezuvchanlik;
3. Yosh shaxs xarakterining kattalarnikiga qaraganda o'tkinchi va kamroq barqaror bo'lishi.¹⁰²

Sud bu xulosaga yoshlarning miyasi to'liq shakllanishi 21–25 yoshgacha davom etadigan ilmiy dalillarga asoslanib keldi.¹⁰³ Oxirida shakllanadigan – xavf baholash, impuls nazorati va hukm qilish bilan bog'liq bo'limlardir. Shuning

uchun sud 18 yoshgacha bo'lgan shaxsni biroz kamaytirilgan qobiliyatga ega shaxs sifatida e'tirof etishi, ularning o'sish va yetuklik bilan to'liq rivojlanishi mumkinligini hisobga olish kerak, degan xulosaga keldi.

Qonuniy jihatdan, 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan jinoyatchilarning miyasi kattalarnikidan farq qilishi tushuniladi. Shu tamoyil qurbonlar uchun ham qo'llanilishi lozim, chunki tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar nafaqat jinoyatchilar kattalarga nisbatan nevrologik, intellektual, hissiy va psixososial rivojlanishda farq qiladi.¹⁰⁴ Bu shuni anglatadiki, voyaga yetmagan qurbonlar ham xulq-atvorni baholash, impulslarni nazorat qilish va xavf olish borasida cheklanganliklarga ega va shuning uchun ularga yuqori darajada himoya kerak. Voyaga yetmaganlar qurbonlikka nisbatan alohida zaif bo'lib, bu tajribalarning ta'siri yanada kuchayadi va uzoq muddatli bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalikda tajribadan o'tgan qurbonlikning dahshatli ta'siri voyaga yetmaganlarning rivojlanayotgan miyasi tufayli yanada kuchayadi. Tajovuz va zo'ravonlik bolalik va o'smirlik davrida sodir bo'lsa, yanada zararli hisoblanadi.¹⁰⁵ Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiya qurbonlari butun hayot davomida psixologik muammolarni boshdan kechirishi mumkin, jumladan: depressiya, xavotir, psixoz, posttravmatik stress buzilishi (PTSD), ayb tuyg'usi, qo'rquv, jinsiy disfunktsiya, giyohvand moddalar iste'moli va agressiv xatti-harakatlar.¹⁰⁶ Qurbonlik nafaqat uzoq muddatli psixologik va rivojlanish ta'siriga ega, balki doimiy neyron rivojlanishga ham ta'sir qilishi mumkin.¹⁰⁷

Bolalarning o'sishidagi zaiflik va ular boshdan kechiradigan zararlar ortgani sababli, jinoyat qurbonligi bilan bog'liq qonunlarda 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar har doim bolalar sifatida tan olinishi kerak. Miya rivojlanishining bunday tan olinishi, qurbonlarning ekspluatatsiya yoki zo'ravonlikka "rozilik" bildirishlari haqida har qanday taxminlarni kamaytiradi, jinoyatchilar tomonidan ko'pincha suiiste'mol qilinadigan bolalarning rivojlanmagan ongining zaif tomonlarini ta'kidlaydi va bolalarga yetadigan travmaning halokatli ta'sirini kontekstga joylashtiradi.

Bolalarga universal atama berish, ularning kattalarga nisbatan huquqlari yo'q degani emas. Shuningdek, bu barcha huquqiy masalalar ta'lim, tibbiy xizmat, mustaqillik va saylov huquqi kabi sohalarda bir xil yosh chegarasi bo'lishi kerakligini anglatmaydi. Biroq, bu aniq sohalarda, masalan, bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiya sohasida bir xilda bo'lishi lozim. Shuning uchun jinoyat qonunida, xuddi jinoyat qilgan bolalar 18 yoshgacha bo'lsa, ularni miya rivojlanishi sababli kattalardan alohida tutish kerak bo'lgani kabi, 18 yoshgacha bo'lgan qurbonlar ham shunday ko'rilishi lozim. Buni qilmaslik, jinoyat qilgan bolalar o'z harakatlari uchun kamroq aybdor deb hisoblanadigan, lekin xuddi shunday xususiyatlarga ega bo'lgan qurbonlar esa to'liq shakllangan aql va o'zini tutish qobiliyatiga ega kattalar sifatida ko'riladigan tuzilmani yaratadi.

Adolatli yorliqlash tamoyili bu yorliqni qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro qonunchilik va Oliy Sud qarorlari bilan mos ravishda, 18 yoshgacha bo'lgan qurbonlar huquqiy jihatdan bola sifatida hisoblanishi kerak. Bu "bolaning qanday qabul qilinishi haqida jamiyatning talqinlariga bevosita ta'sir qiladi... Jamiyatlarda agar bola kattadan farq qilmaydigan deb qaralsa, bolalar nikohi va bolalar pornografiyasi kabi narsalar qabul qilinadigan holga keladi."¹⁰⁸

B. "Bolalarning jinsiy suiiste'mol tasvirlari"

Amerikada "bolalar jinsiy zo'ravonligining tasvirlari" uchun eng keng tarqalgan atama "bola pornografiyasi" hisoblanadi. Ushbu atama odatda "bola real yoki simulyatsiya qilingan aniq jinsiy faoliyat bilan shug'ullanayotganini yoki bolaning jinsiy a'zolarini tasvirlaydigan, bunda asosiy xususiyat bu tasvirning jinsiy maqsadda ishlatilishi"ni anglatadi.¹⁰⁹ Qo'shma Shtatlarda bu atama ko'pincha "jinsiy aniq xatti-harakatlar bilan shug'ullanayotgan haqiqiy bolalarning tasvirlari" deb ta'riflanadi. Ko'pgina yurisdiksiyalarda jinsiy aniq xatti-harakatlar aniq quyidagilarni o'z ichiga oladi: "haqiqiy yoki simulyatsiya qilingan—(i) jinsiy aloqa, shu jumladan jinsiy a'zolar orasidagi, og'iz orqali jinsiy aloqa, anal-genital yoki og'iz-anal aloqa, jinsiy jihatdan bir xil yoki turli jinsdagi shaxslar o'rtasida bo'lishi mumkin; (ii) hayvon bilan jinsiy aloqa; (iii) onanizm; (iv) sadistik yoki mazoxistik suiiste'mol; yoki (v) har qanday shaxsning jinsiy a'zolari yoki jinsiy azolar sohasini lo'nda ko'rsatish."¹¹⁰

Ushbu faoliyatlar og'ir hisoblanadi, shuning uchun xalqaro va ichki hamjamiyat bunday yomon tasvirlarni "bola pornografiyasi" deb belgilashdan voz kechdi. Ular turli atamalarni qabul qilishdi, masalan: "bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tasvirlari",¹¹¹ "bolalarga nisbatan zo'ravonlik material",¹¹² "bolalarga nisbatan zo'ravonlik tasviri",¹¹³ yoki "jinsiy ekspluatatsiya materiallari".¹¹⁴ Buni ular shunday tushunganlari sababli qildilar: "bola pornografiyasi" atamasi uning mazmunini to'liq aks ettirmaydi va nozik ravishda rozilik asosida faoliyat mavjudligini taxmin qiladi."¹¹⁵ Ko'plab tadqiqotchilar ham shunga qo'shib, shunday yozishadi: "Ushbu sohada ishlayotgan mutaxassislarning ko'pchiligi bunday atama ['bola pornografiyasi'] materialning haqiqiy tabiati bilan yuzlashishimizni cheklaydi, deb hisoblaydi. Afzal ko'riladigan atama zo'ravonlik tasvirlari."¹¹⁶ Hozirda "bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tasvirlari" atamasi sudlarda¹¹⁷ va shtat qonunlarida¹¹⁸ tobora kengroq qo'llanilmoqda. "Bola

109

pornografiyasi" atamasidan voz kechish esa shundan dalolat beradi-ki, bolalar jinsiy zo'rvonlik tasvirlari katta yoshdagi pornografiyaning yoshroq versiyasi emasligi tobora kengroq tan olinmoqda.¹¹⁹ Aksincha, ushbu atama ko'pincha "jinoyat joyi tasvirlari" deb yanada aniqroq tasvirlanadi, chunki ular bolalarning¹²⁰ jinsiy zo'rvonlik qilinganini hujjatlash uchun ishlatiladi, ya'ni jinsiy aloqani yodga olish yoki bolaning shunday vaziyatda suratga olinishi yoki videoga tushirilishi orqali.

Ushbu yanada ongli va ta'riflovchi atama shuningdek shundan dalolat beradi-ki, jinsiy zo'rvonlik faqat tasvirlar yaratilganida sodir bo'lmaydi, balki qurbon tasvirlar yaratilishi natijasida ko'plab qo'shimcha zararlarni ham boshdan kechiradi. BMTning Bolalar huquqlari bo'yicha nodavlat tashkilotlar qo'mitasi ushbu tasvirlar tufayli keladigan zararlarning qisman ro'yxatini tuzgan:

1. Bolalar tasvirlar yaratilishi jarayonida duch keladigan zarar;
2. Tasvirlar nusxalanib tarqatilganda bolalarga yetadigan zarar;
3. Tasvirlarni egallaganlar ularni iste'mol qilish orqali bolalarni ekspluatatsiya qilishni davom ettirganida yuzaga keladigan zarar;
4. Tasvirlarning mavjudligi bolalarga yetkazadigan zarar, chunki bu tasvirlarga bo'lgan talabni saqlab turadi;
5. Tasvirlar bolalarga nisbatan jinsiy zo'rvonlikni normallashtirishda o'ynaydigan roli tufayli yetadigan zarar;
6. Tasvirlar boshqa qurbonlarni zo'rvonlikka tayyorlash uchun ishlatilganda yetadigan zarar;
7. Tasvirlar bolalarni shantaj qilish, qo'rqitish yoki majburlash uchun ishlatilganda yetadigan zarar;
8. Ushbu tasvirlar savdoga qo'yilganda yuzaga keladigan zarar, chunki bu "jamiyatda bolalarga nisbatan jinsiy istakni ratsionalizatsiya qilish va mustahkamlashga xizmat qiladi."¹²¹

Ushbu tasvirlar bolalarga turli xil chuqur va og'ir zararlarni yetkazadi.

Bolalarning jinsiy zo'rvonlik tasvirlarini nazorat qiluvchi tashkilotlarning barchasi shuni qayd etgan: bunday tasvirlar tobora shafqatsizroq bo'lib bormoqda va ular yoshroq va yoshroq bolalarni ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu tasvirlarning mazmuni bir xilda emasligi ham haqiqatdir. Huquqiy ta'rifga mazoxizm va hayvonlar bilan jinsiy aloqani ko'rsatadigan tasvirlar, shuningdek, jinsiy a'zolari lo'nda ko'rsatish tasvirlari ham kiradi. Bu esa kichik bir guruhni "bolalarga nisbatan zo'rvonlik tasvirlari" atamasiga qarshi chiqishga undadi, ular barcha tasvirlar zo'rvonlikni aks ettirmaydi, deb hisoblashadi.

Bu argumentda ikki nuqson mavjud. Birinchisi, u "zo'rvonlik"ni "hujum" bilan adashtiradi, noto'g'ri ravishda shuni taklif qiladi-ki, bolaga hujum qilinishi shart bo'lmasa, tasvir bola pornografiyasi yoki bolalarga nisbatan zo'rvonlik tasviri sifatida ta'rifga mos kelmaydi. Ikkinchisi, qonunlar, sudlar va tadqiqotlar aniq ko'rsatganini tushunmaydi: tasvirdagi bolaga faqat tasvir yaratilayotgan

paytda emas, balki video yoki foto orqali "jinsiy jihatdan aniq" xatti-harakatlar aks etganidan keyin ham zo'ravonlik va ekspluatatsiya qilinadi.¹²²

Bolaning kino yoki videoda haqiqatan hujumga uchrashi shart emas, u bola pornografiyasi yoki jinsiy zo'ravonlik tasvirlarining qurboni bo'lishi uchun.¹²³ Bunday tasvirlar mazmuni orqali aniqlanadi. Agar tasvir bolani jinsiy aniq xatti-harakatlar bilan shug'ullanganini ko'rsatadigan bo'lsa, u tasvir bola pornografiyasi yoki bolalarning jinsiy zo'ravonlik tasviri hisoblanadi. Tasvirlarning o'zi zararli bo'lib, bu qonunlar hal qilmoqchi bo'lgan ijtimoiy zararlarning biridir. *New York v. Ferber* ishida Oliy sud birinchi bo'lib bunday zararlarni tan oldi va (AQSh Konstitutsiyasining) Birinchi o'zgartirish moddasi bola pornografiyasini himoya qilmaydi deb qaror chiqardi.¹²⁴ U Birinchi o'zgartirishni bola pornografiyasiga nisbatan kengaytirmadi, chunki tasvirlar yaratilishida hujum sodir bo'lgan edi, balki shuni tan oldi-ki, jinsiy jihatdan aniq kontekstda suratga olingan har bir bola "psixologik, hissiy va ruhiy zarar"ga duch keladi.¹²⁵ *Ferber* sudi qaroriga besh sababni kiritdi, ulardan biri bolalarning tasvirlarda "ishtiroki"ni aks ettiruvchi "doimiy yozuv" yaratish jarayonida keladigan psixologik zarar edi.¹²⁶

Boshqacha aytganda, sud har doim tasvirlarning o'zlari bolalarga zarar yetkazishini tushungan.¹²⁷ Bu keyinchalik *Osborne v. Ohio* ishida yana ta'kidlandi, sud bolalarga yetadigan psixologik zarar tasvirlarning "davomiy mavjudligi" tufayli yuzaga kelishini qayd etdi.¹²⁸ Shuningdek, sud izohlarida shuni ko'rsatdiki, hatto morf qilinadigan tasvirlar haqiqiy bolalarning manfaatlariga ta'sir qiladi va *Ferber* ishidagi tasvirlarga "yaqinroq" bo'ladi, virtual tasvirlar esa, ya'ni haqiqiy bolalarga psixologik zarar yetkazmaydigan tasvirlar, bunga kirmaydi.¹²⁹

